

IBORALARDA METONIMIYA HODISASINING NAMOYON BO'LISHI

G'aniyeva Dildora Azizovna

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fanlari doktori, Ingliz tili kafedrası dotsenti

Sharipova Shokhsanam Qodirjon qizi

Fargona Davlat Universtiteti Magistratura yo'nalishi

Lingvistika ingliz tili 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada frazeologik polisemiyaning metafora asosida shakllanishini tahlil qilish asosida muayyan xulosalarga kelingan. Mavzuning tadqiq etilishi tasniflangan va muayyan darajada munosabat bildirilgan. Frazeologik birliklarning kontekstda ifodalayotgan ma'nolari, iboralarning ko'p ma'noliligi va ma'nodoshligini farqlash, izohlashga doir misollar asosida ayrim taklif-mulohazalar bayon qilingan.*

***Kalit so'zlar:** metafora, metonimiya, polisemiya, frazema, iboralarda ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik, semantika.*

KIRISH

Har qanday xalqning frazeologiyasi ushbu tilda gaplashadigan millat tarixi, madaniyati, urf-odatları va adabiyoti bilan uzviy bog'liqdir va shunga mos ravishda adabiy-badiiy asarlarda aks etadi.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi, chunki rus frazeologik birliklari ko'pincha bir cho'qqili frazeologik birikmalar bo'lib, ularda eskirgan yoki kam ishlatilgan so'zlar saqlanib qoladi: *бить баклуши, точить лясы*. Ingliz tilidagi frazeologik birliklar odatda

ko‘proq moslashuvchan, ma‘no jihatidan shaffofroqdir va shuning uchun ko‘pincha tarkibiy qismlarni almashtirish yoki qo‘shimcha kiritish mumkin. Masalan, *Die Hard* («Крешкий оперетк») beshinchi seriyasida *Good Day to Die Hard* gacha kengaytirildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tilning ifoda vositalari orasida metaforalar alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, N.D.Arutyunova ta‘kidlaganidek, “leksika metafora asosida rivojlanadi” [1:33]. Metafora tilning, aniqrog‘i, insoniyatning muhim muloqot vositalaridan biridir. U tilda fundamental qiymatga ega bo‘lib, nisbatan aloqa munosabatlari yaqin bo‘lgan kishilar o‘rtasida qo‘llanadi. O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida so‘z ma‘nosiga, ma‘no ko‘chish usullariga e‘tibor qilish boshlandi. Jumladan, tilshunos T.Aliqulov shunday yozadi: “Polisemiya tilshunoslikning aktual masalalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham uning tildagi o‘rnini belgilash, tarixiy rivojlanish etaplarini kuzatib, qay usullar bilan vujudga kelish qonuniyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega” [2:36]. Olim XX asrning ikkinchi yarmida “Polisemiyalarning hosil bo‘lishi haqida”gi maqolasida va o‘zbek tilida polisemiya hodisasiga bag‘ishlangan boshqa maqolalarida o‘z nuqtai nazarlarini bayon qiladi va natijalar darslik va qo‘llanmalardan o‘rin ola boshladi [3:31-37].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Shu o‘rinda ma‘no ko‘chish turlari haqida ham mulohaza yuritishga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida ma‘no ko‘chishining metafora, metonemiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya va tag ma‘no kabi turlari farqlanadi. Vazifadoshlik ham metafora kabi o‘xshashlikka asoslangani uchun til birliklarini farqlashda ayrim chalkashliklar yuzaga chiqmoqda. Shu ma‘noda O.Azizovning sinekdoxani metonimiya tarkibiga kiritishi [4:76], S.Usmonov, Sh.Rahmatullaevlarning mazkur yondashuvni yoqlashi muayyan asoslarga egaligini ko‘rsatadi. Biroq O.Azizov sinekdoxani metonimiya tarkibiga kiritgan holda vazifadoshlik haqida o‘z munosabatini bildirmaydi. M.Mirtojiev bo‘lsa, ma‘no

ko'chish usullarini metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik va tobelilik kabi 5 taturga bo'ladi [5:35].

Bizningcha ham, ma'no ko'chish turlarining tushunarli va ixcham bo'lishi ularning umumlashtirilishga bog'liq, bu borada metafora va metonimiyagagina ajratish to'g'ri yondashuv bo'ladi, vazifadoshlik metafora tarkibiga, sinekdoxa metonemiya tarkibiga kiritilgani ma'qul. Shunday tasnif qilinsa, ham ilmiy ham ta'limiy nuqtai nazardan foydali bo'ladi, qolaversa, boshqa til birliklari tadqiqida ham nisbatan qulaylik paydo bo'ladi, ma'lumki, frazeologizmlar ko'chma ma'noga asoslagan bo'ladi, ularni hosil bo'lish yoki shakllanish jihatdan tasniflashda ikkiga ajratish qulaylik tug'diradi. Maqolada frazeologik polisemiyaning metaforik asosda shakllanishiga doir kuzatish natijalari ayrim misollar orqali bayon qilindi. Bizningcha, iboralar yo aloqadorlik yoki o'xshashlik asosida ko'chma ma'nolar hosil qilsa-da, tahlillardan ma'lum bo'lishicha, frazeologizmlar orasida o'xshashlik, ya'ni metafora asosida shakllanish ustuvorlik qiladi.

Masalan, "bosh ko'tarmoq" FB 1) qaradi 2) qilib turgan ishini to'xtaldi 3)qo'zg'aldi, harakat qildi 4) kurashga chog'landi kabi ma'nolarni ifodalagan. Shuningdek quyidagi misollarda ham frazeologik birikmalar metaforik ma'no ifodalash asosida polisemiyaning hosil qilmoqda: Boshlarini bir joyga qovushtirdi – 1) hamjihat bo'lib birlashtirdi 2) oila qurdirdi.

Boshi aylandi – 1)behud bo'ldi, muvozanatini yo'qotdi 2)esankiradi. Bo'yniga qo'ydi -1) to'nkadi, ayb ag'dardi 2) bajarishga rozi qildi Bosh suqdi -1)gavdasi tashqarida qolib, boshini tiqqan holda qaradi2)aralashdi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, harakatni ifodlovchi, fe'l asosli ko'plab iboralar harakat yoki holat o'xshashligi asosida metaforik ma'no ifodalamoqda. Metafora va metonimiya tilda polisemiya bilan bog'liq asosiy vazifani bajaradi, frazeologik birliklarning shakllanishida ham metonimiyaga nisbatan metaforalar o'ziga xos muhim o'rinni egallaydi.

FB larning shakllanishida metaforalarning hissasini alohida tadqiq qilish frazeologik polisemiya metaforik va metonimik asosda shakllanishi, ularning darajasi nisbiy ekanligi, bir iboraning ba'zi hosila sememalari faqat metaforik, ba'zan faqat metonimik asosda bo'lishi dalillandi. O'zbek tilidagi polisemantik frazeologizmlarning leksikografik talqinida o'zbek formal leksikologiyasi yutuqlari ustuvor ekanligi, ulardagi semik farqlarning e'tiborga olinishida frazeologik birliklarning semasiologik talqini zarurligi asoslandi. O'zbek tilining umumiy izohli lug'atlaridagi frazeologik polisemiya talqiniga munosabat bildirildi va uni mukammallashtirish bilan bog'liq takliflar berildi, frazeologizmlarni til korpuslarida berish vazifalari ko'rsatildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arutyunova N.D. Metafora i diskurs. Teoriya metaforы. – M., 1990.– b. 5-33.
2. Aliqulov T. Polisemiylarning hosil bo'lishi haqida / - Toshkent: O'zbek tili va adabiyoti, 1963. 6-son. – 36 b.
3. Хайтов, Л. А. (2014). Значение эстетического воспитания в развитии личности студента педагогического вуза. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (10), 40-44.
4. Azamatovich, X. L. (2021). The Concept of Heart In The Treatises Of Hakim Termizi. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(3), 63-67.
5. Azamatovich, K. L. (2020). The role of the Hakim Termizi architectural complex in visiting tourism in Uzbekistan. *Вопросы науки и образования*, (9 (93)), 27-31.
6. Yuldasheva, D. THE IMPORTANCE OF COOPERATIVE LEARNING AND GROUP WORK IN ENGLISH CLASSES. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 100.
7. Artikbayeva, Z. A., & Egamova, G. A. (2022). Boshlang 'ich sinf ona tili darsliklarida so 'z birikmasi yuzasidan berilgan bilimlar tahlili. *Science and Education*, 3(2), 734-739.
8. Sadikov, E. (2022). TIL O 'QITISHDA PRAGMATIKA MASALALARI: TA'RIFLAR, TANQIDLAR, TAHLILLAR VA TALQINLAR. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 24(24).